XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-171-3-55-K/25 Jizzax shahar

Jizzax shahrining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02-01-01-166-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Jizzax shahar mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **152 343 561,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **152 343 561,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi shuningdek, Jizzax shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 222 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Jizzax shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2026-yilda umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetiga ajratmalar meyori 2-ilovaga muvofiq, shahar mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, shahar mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy

hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek shahar mahalliy budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 741 804,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Xaydarov, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (J.Tojibayev), shahar soliq inspeksiyasi (X.Umurov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8.Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Sh.Azimov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - shaharIqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S. Xaydarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XOLMURODOV KOMIL ADXAMOVICH**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-171-3-55-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Jizzax shahar mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘m

№	Daromad turlari	Jizzax shahar jami
	JAMI	**152 343 561**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 332 800
2	Foyda solig‘i	3 251 350
3	Aylanmadan olinadigan soliq	31 960 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 619 270
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	4 799 600
	Aksiz solig‘i jami	3 383 550
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0
	pivo	0
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	3 383 550
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 589 250
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	30 247 290
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 235 800
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 434 601
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	656 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 164 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	0
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	0
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	3 700
14	Davlat boji	2 671 900

15	Yig‘imlar	2 516 100
16	Jarimalar	1 502 350
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	976 000

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-171-3-55-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetiga ajratmalar meyori

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	**Qo‘shilgan qiymat solig‘i**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	5%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	95%
2	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	5%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	95%
3	**Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan olinadigan soliq**	Shahar budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Foyda solig‘i**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	5%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	95%
5	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
6	**Pivo**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
7	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	15%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	85%
8	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	25%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	75%
9	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	30%
		Viloyat	YST	100%

		budjetiga	HST	70%
10	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Shahar budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
11	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Shahar budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
12	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Shahar budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%

№	**Soliq turlari**	**Hududlar nomi**	**Soliq to‘lovchilar**	**Ajratma me’yori**
13	**Aylanmadan soliq**	Shahar budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
14	**Davlat boji**	Shahar budjetiga		5%
		Viloyat budjetiga		95%
15	**Jarima**	Shahar budjetiga		5%
		Viloyat budjetiga		95%
16	**Yig‘imlar**	Shahar budjetiga		15%
		Viloyat budjetiga		85%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar.

YST – Yirik soliq to‘lovchilar

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-171-3-55-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Jizzax shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**152 343 561,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	42 766 024,0
	shundan:	0,0
	"Mening maktabim"	1 915 800,0
2	Madaniyat bo‘limi	7 274 041,0
	shundan:	
	1-son Bolalar Musiqa va san’at maktabi	2 750 438,0
	2-son Bolalar Musiqa va san’at maktabi	2 764 606,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 147 795,0
4	Sport bo‘limi	5 179 921,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 623 867,0
6	Veterenariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 827 148,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	0,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	3 307 525,0
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	0,0
10	Hokimiyat	30 810 674,0

	shundan:	0,0
	Hokim yordamchilari	3 720 367,0
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	1 594 611,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	15 376 157,0
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 112 000,0
	Zahira jamg‘armasi	1 741 804,0
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	0,0
	shundan:	0,0
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*0,0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	55 406 566,0
13	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-171-3-55-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromadlar	shundan		Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Jizzax shahar	**152 343 561,0**	**152 343 561,0**	**0,0**	**152 343 561,0**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-171-3-55-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Jizzax shahar	**1 222 000,0**